

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI DOTSENTI
O.To'xtasinovaNING FILOLOGIYA FAKULTETI O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI TA'LIM YO'NALISHI II KURS TALABALARI
UCHUN HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI FANIDAN "LEKSIK
ANTONIMIYA" MAVZUSIDAGI 2 SOATLIK MA'RUZA
MATNI

2014

MAVZU: LEKSIK ANTONIMIYA

REJA:

1. Antonimlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Antonimlarning so'z turkumlari jihatidan turlari.
3. Antonimlarning tuzilishiga ko'ra guruhlar.
4. Antonimlarni polisemiya va sinonimiya hodisalariga bog'lab o'rganish.
5. Antonimlarning yuzaga kelishi yo'llari.
6. Antonimlarni belgilash mezonlari haqida
7. Antonimlarning ahamiyati.

O'zaro zid munosabat lug'aviy birliklar hamda grammatik birliklar doirasida bo'lishi mumkin. SHunga ko'ra antonimiya ikki turga bo'linadi: **lug'aviy antonimiya** va **grammatik antonimiya**. Lug'aviy birliklarning o'zaro antonim bo'lishiga **lug'aviy antonimiya** deyiladi. **Lug'aviy antonimiya** uch xil bo'ladi: 1) **leksik antonimiya**, 2) **frazeologik antonimiya**, 3) **leksik-frazeologik antonimiya**.

Leksik antonimlar – zid ma'noli so'zlarning o'zaro antonim bo'lib kelishidir: katta – kichik, yosh – qari, bormoq – kelmoq, yig'lamoq – kulmoq, tez – sekin, bugun – erta kabilar.

Frazeologik antonimlar – qarama-qarshi ma'noli iboralardir: erga urmoq – ko'kka ko'tarmoq, ko'ngli oq – ichi qora, yuzi yorug' – yuzi shuvut, ko'ngli joyiga tushmoq – yuragiga g'ulg'ula tushmoq singarilar.

Leksik – frazeologik antonimlar zid ma'noli so'z va iboralar orqali shakllanadi: xursand – dili siyoh, sodda – ilonning yog'ini yalagan, qizg'anchiq – qo'li ochiq, xafa – boshi osmonda, ziqna – fe'li keng va boshqalar.

Grammatik antonimiya – grammatik birliklarning o'zaro antonim bo'lishidir. Grammatik antonimlar asosan so'z yasovchi qo'shimchalarda uchraydi, lekin ular juda ham oz. **-li** va **-siz** (bilimli – bilimsiz, kuchli – kuchsiz, xavfli – xavfsiz), **ba-** va **be-** (bama'ni - bema'ni), **-li** va **be-** (barakali – bebaraka, foydali – befoyda) qo'shimchalari affiksali antonimlardir.

Leksik antonimiya leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishidir: *oq* va *qora*, *qalin* va *yupqa* kabi.

Antonimlar o'ziga xos xususiyatlari bilan omonim va sinonimlardan farqlanadi. Shakliy (fonetik tuzilish) jihatdan har xillik; ma'no jihatdan har xillik; ma'nodagi o'zaro zidlik antonimlarning muhim belgisi sanaladi. Keyingi belgi, ya'ni zidlik tushunchasi antonimlarni belgilashda asosiy kriteriya bo'lib hisoblanadi.

Antonimik munosabatda bo'lgan ikki so'z **antonimik juft** deb ataladi. Antonimiya hodisasi, asosan, bir so'z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi. Antonimlar asosan sifat, ravish, ot va fe'l turkumiga xos so'zlardan hosil bo'ladi. Shunga ko'ra ular sifat antonimlar, ravish antonimlar, ot antonimlar, fe'l antonimlarga bo'linadi.

Sifatlarda: a) hajm belgisiga ko'ra: *katta* va *kichik*, *baland* va *past*; b) harorat belgisiga ko'ra: *issiq* va *sovuq*; d) yosh belgisiga ko'ra: *yosh* va *qari*; e) xarakter-xususiyat belgisiga ko'ra: *saxiy* va *xasis*, *botir* va *qo'rqqoq*, *aqlli* va *ahmoq*; f) shakl belgisiga ko'ra: *to'g'ri* va *egri*; g) maza-ta'm belgisiga ko'ra: *achchiq* va *shirin* kabi.

Payt, holat, miqdor ma'noli leksemalar doirasida ham antonimiya hodisasi keng tarqalgan: a) *kecha* va *ertaga*, *avval* va *keyin* (payt belgisiga ko'ra), b) *tez* va *sekin*, *arang* va *bemalol* (holat belgisiga ko'ra), v) *ko'p* va *oz*, *mo'l* va *kam* (miqdor belgisiga ko'ra) va b.lar. Bunday leksemalarning sifat va ravish turkumiga mansubligi keyingi yillarda bir qadar munozarali bo'lib qolmoqda.

Otlarda: a) belgi otlarida: *boylik* va *kambag'allik*, *botirlik* va *qo'rqqoqlik*; b) qarama-qarshi tomon nomlarida: *sharq* va *g'arb*, *janub* va *shimol*; d) fasl nomlarida: *yoz* va *qish*, *kuz* va *bahor*; e) sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarda: *kecha* va *kunduz*, *tong* va *shom* kabi.

Fe'llarda: a) qarama-qarshi harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarda: *bormoq* va *kelmoq*, *kirmoq* va *chiqmoq*; b) sifat yoki ravishdan yasalgan fe'llarda: *kengaymoq* va *toraymoq*, *ko'paymoq* va *ozaymoq*, *sekinlashmoq* va *tezlashmoq* kabi.

Tilimizda sifat va ravish antonimlar ko'p uchraydi. Bu antonimlarning ko'pchiligi belgi bildiruvchi so'zlardan ekanligini ko'rsatadi. Binobarin tilimizdagi 1700 dan ortiq antonim juftlikning 1000 dan ortig'i sifat va ravishdan iboratdir.

O'zbek tilida antonimlar tuzilishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Antonimlarni tuzilishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Har ikki qismi tub so'zlardan tashkil topgan antonimlar: rohat – azob, uzoq – yaqin, yaxshi – yomon, er – osmon, do'st – dushman, baland – past, ko'p – oz kabilar.

2. Bir qismi tub, ikkinchisi yasama so'zlardan iborat antonimlar: xunuk-chiroyli, shirin-bemaza, ahil-noahil, to'g'ri-noto'g'ri, shodlik-qayg'u, zaif-baquvvat singarilar.

3. Har ikki qismi yasama soʻzlardan tashkil topgan antonimlar: kuchli-kuchsiz, mazali-bemaza, jonli-jonsiz, barqaror-beqaror, baquvvat-bequvvat, yorugʻliq-qorongʻulik, rostgoʻy-yolgʻonchi va boshqalar.

4. Har ikki qismi qoʻshma soʻzlardan tashkil topgan antonimlar: kunchiqar-kunbotar, mehnatsevar-ishyoqmas, ertapishar-kechpishar kabi.

5. Har ikki qismi juft soʻzlardan iborat antonimlar: yosh-yalang - qari-qartang, oʻyin-kulgi – dard-alam.

6. Har ikki qismi takroriy soʻzlardan tashkil topgan antonimlar: sekin-sekin – tez-tez, koʻp-koʻp – oz-oz, yigʻlab-yigʻlab – kulib-kulib, katta-katta – kichik-kichik kbilar.

Baʼzan feʼlning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan antonimik munosabatlarga kirishishi mumkin: *oʻqigan* va *bilimsiz*, *oʻqimagan* va *bilimli* kabi.

Antonimiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan, ot va feʼllarda bir oz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa boʻlmaydi (ayrim kontekstual holatlar bundan mustasno).

Kontekstual antonimiya oʻzaro zid maʼno ifoda etmagan leksemalarning maʼlum kontekst ichida soʻzlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir. Buni quyidagi sheʼriy misralar tahlilida koʻrish mumkin:

Ushoq **qand** oq **tuzga** monand erur,
Va lekin biri **tuz**, biri **qand** erur
(A..Navoiy)
Aytur soʻzni **ayt**,
Aytmas soʻzdan **qayt**!
(A..Navoiy)
Sichqonlarga nisbatan
Poyloqchiman **toʻgʻriman**.
Koʻrsam tekin goʻsht baʼzan
Chidolmayman - **oʻgʻriman**. (O.Q)

Bu misollarda qoʻllangan **qand** va **tuz**, **ayt** va **qayt** hamda **toʻgʻri** va **oʻgʻri** soʻzlari aslida (tilda) antonimlar emas, ammo birinchi misolning ikkinchi misrasida **tuz** va **qand** leksemalari muallifning leksik qoʻllashi natijasida «*achchiq*» va «*shirin*» (demak, «*yaxshi*» va «*yomon*») maʼnolarini, ikkinchi misoldagi **ayt** va **qayt** leksemalari «**ayt**» va «**aytma**» degan zid maʼnolarni, uchinchi misoldagi **toʻgʻri** va **oʻgʻri** leksemalari esa «*oʻgʻri* emas» va «*oʻgʻri*» maʼnolarini ifoda etib, kontekstual antonimiya hosil qilgan (bunda *toʻgʻri* leksemasi otlashgan).

Bunday qoʻllanish olmoshlarda va sonlarda ham uchraydi: *Bir u deydi, bir bu deydi*, deganda **u** va **bu** olmoshlarida kontekstual zidlanish bor.

Antonimik juftlik. Leksik antonimiya ikkita leksema orasida yuz beradi, bu ikki soʻz *antonimik juftlikni* hosil qiladi, ammo antonimik juftlik juft soʻz degan gap emas. Qiyos qiling: *katta* va *kichik* – antonimik juftlik (undagi har bir soʻz - mustaqil leksema), *katta-kichik* – bitta juft soʻz, u umumlashgan bitta maʼnoga ega. Demak, *katta* va *kichik* zid maʼnoli ikkita leksema boʻlganligi uchun, ular bir-biriga nisbatan antonimlardir, *katta-kichik* juft soʻzi esa antonimlar ishtirokida yasalgan bitta leksemadir, binobarin, bitta leksemaning yolgʻiz oʻzi antonim hisoblanmaydi. Shuningdek, **bor** va **borma** kabi soʻz shakllari ham antonimlar deb qaralmaydi, chunki antonim boʻlish uchun, yuqorida aytib oʻtilganidek, albatta ikkita soʻz (leksema) mavjud boʻlishi, bu ikki soʻz oʻzaro zid maʼno ifodalashi shart, **bor** va **borma** esa ikkita leksema emas, balki bitta **bor** leksemasining (feʼlning) boʻlishli (*bor*) va boʻlishsiz (*borma*) shakllari, xolos. Demak, bunda ham antonimik juftlik yoʻq.

Enantiosemiya bitta leksema maʼnosida nutqiy muhit talabiga koʻra zidlanishning ifodalanishi. Chunonchi, *ofat* soʻzining maʼnosi «falokat», «balo»dir, ammo u «Ulugʻ yoʻl» romanidagi bir epizoda shu maʼnoga zid ravishda «goʻzal», «maftunkor» maʼnolarini anglatgan: «Adibaxon alifday nozik, yuzi tiniq, oq, yirik koʻzlari ustidagi ingichka qoshlari *ofat* ...». Tabiiyki, bunday holatda ham antonimiya yuzaga kelmaydi.

Antonimiya va polisemiya hodisalari oʻzaro bogʻliqdir: koʻp maʼnoli leksema oʻzining bosh maʼnosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila maʼnosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masalan: *achchiq qalampir* va *shirin olma* birikmalarida **achchiq** va **shirin** leksemalari oʻzlarining *bosh* maʼnolari orqali antonimik munosabatga kirishgan; *achchiq gap* va *shirin gap* birikmalarida esa *achchiq* va *shirin* leksemalarining hosila (koʻchma) maʼnolari antonimiyaga asos boʻlgan.

<u>Buzmoq 1</u>	<u>Tuzatmoq</u>
Ishlab turgan, ishga yarab turgan narsani yaroqsiz holga keltirmoq, ishdan chiqarmoq.	Ishdan chiqqan narsani taʼmir qilib, yaroqli holga keltirmoq, ishga tushirmoq.

Misol: (Dadavoy Xadichaga): Soat meniki, **buzadigan** ham oʻzim, **tuzatadigan** ham oʻzim (Uygʻun).

<u>Buzmoq 2</u>	<u>Qurmoq</u>
Mavjud narsani vayron qilmoq, yoʻq qilmoq.	Qurilish materiallaridan foydalanib barpo qilmoq, yaratmoq.

Otxonani buzmoq.	Otxona qurmoq.
------------------	----------------

Misollar: Vodokachkalar **buzib** tashlangandan keyin kapsanchilarning bir qismi asta-sekin har yoqqa ko'chib ketib qoldi (A.Qahhor). Maktab deb **qurdik** bino, hamma ilm olsun deb (Qo'shiqdan).

Bundan tashqari, **dag'al** 1 – **mayin** so'zi bilan, **dag'al** 2 – **xushmuomala** so'zi bilan; **echmoq** 1– **bog'lamoq** fe'li bilan, **echmoq** 2 – **kiymoq** fe'li bilan; **ochmoq** 1 so'zi-yopmoq, **ochmoq** 2 – **berkitmoq**, **ochmoq** 3 - **yummoq** so'zlari bilan; **sekin** 1 so'zi- **tez**, **sekin** 2 – **qattiq** so'zlari bilan antonimik munosabatga kirishishi mumkin.

Antonimlarni sinonimlar bilan bog'liq holda tadqiq etish ham alohida ahamiyatga ega. So'zlarning antonim va sinonimlarini taqqoslab o'rganish ularning turli ma'nolarini aniqlashda katta foyda keltiradi. Darhaqiqat, antonimlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bir so'z o'zaro sinonim so'zlar bilan antonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Masalan, **er** so'zi o'zaro sinonim bo'lgan **osmon**, **ko'k**, **samo** so'zlari bilan ham antonimik munosabatda bo'la oladi. **Do'st** so'zi bir-biriga ma'nodosh bo'lgan **dushman**, **g'anim**, **ag'yor** so'zlariga ham antonimdir. **YOlg'on** so'zi **rost**, **chin**; **yosh** so'zi **qari**, **kekxa**, **qariya**; **serob** so'zi **kamob**, **kamchil**, **tanqis**, **taxchil**; **mag'lub** so'zi **g'olib**, **muzaffar**; **tanish** so'zi **notanish**, **begona**, **yot**; **semirmoq** so'zi **ozmoq**, **oriqlamoq**; **semiz** so'zi **oriq**, **ozg'in**; **oshkora** so'zi **yashirin**, **maxfiy**, **pinhon**, **xufiya**; **poygak** so'zi **to'r**, **yuqori** so'zlari bilan antonimik munosabatda bo'ladi.

YAna shuni ta'kidlash lozimki, o'zaro sinonim so'zlar boshqa sinonimlar bilan ham antonimik munosabat hosil qila oladi. CHunonchi, **botir**, **jasur**, **dovyurak**, **ko'rqqmas**, **yurakli** sinonimik qatoridagi har bir so'z **qo'rqqoq**, **yuraksiz** sinonimik qatoridagi har bir so'zga; **avval**, **oldin**, **ilgari**, **burun** sinonim so'zlari **keyin**, **so'ng** sinonimlariga; **kasal**, **bemor**, **betob**, **notob**, **xasta** sinonimlari **sog'**, **sog'lom**, **salomat** sinonimlariga; **ko'p**, **mo'l**, **ancha**, **bisyor** sinonimlari **oz**, **kam** sinonimlariga; **iflos**, **kir**, **isqirt**, **nopok** sinonimlari **toza**, **pok**, **pokiza**, **ozoda** sinonimlariga; **dangasa**, **ishyoqmas**, **yalqov** sinonimlari **ishchan**, **mehnatsevar**, **mehnatkash** sinonimlariga antonimik munosabatda bo'la oladi.

Antonimlar quyidagicha yuzaga keladi:

1. Tilning lug'at tarkibida qarama-qarshi ma'noli so'z azaldan mavjud bo'ladi: katta va kichik, keng va tor, kun va tun, kecha va kunduz, yaxshi va yomon, bor va yo'q kabilar.

2. Soʻz yasalishi natijasida antonimlar hosil qilinadi. Bunda ikki holat kuzatiladi: 1) maʼlum bir tub soʻzga –li va –siz, ba- va be-, bar- va –dor,-no-affikslarini qoʻshish orqali yasaladi: kuchli-kuchsiz, jonli-jonsiz, bamaʼni-bemaʼni, baquvvat-bequvvat, batartib-betartib, barqaror-beqaror, vafodor-bevafo, mazali-bemaza, haq-nohaq kabilar; 2) oʻzaro antonim boʻlgan soʻzlarga soʻz yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshib soʻz yasash orqali yangi antonimik juftlar hosil qilinadi: rostgoʻy-yolgʻonchi, doʻstona-dushmanlarcha, ogʻirlashmoq-engillashmoq, kengaymoq-toraymoq, tezlashmoq-sekinlashmoq, xursandchilik-xafachilik, eskilik-yangilik, ostki-ustki, oqlamoq-qoralamoq kabilar.


3. Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish natijasida antonimlar yuzaga keladi: doʻst (tojikcha) – dushman (tojikcha), quvonch (oʻzbekcha) – gʻam (arabcha), band (tojikcha) – boʻsh (oʻzbekcha), mudofaa (arabcha) – hujum (arabcha), import (ruscha) – eksport (ruscha), badxoʻr (tojikcha) – xushxoʻr (tojikcha), assimilyaʼiya (ruscha) – dissimilyaʼiya (ruscha), analiz (ruscha) – sintez (ruscha), maksimum (ruscha) – minimum (ruscha), manfiy (arabcha) – musbat (arabcha) va boshqalar.

Antonimlarni belgilash mezonlari haqida. Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari boʻyicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbalarda *opa* va *singil*, *aka* va *uka* *togʻa* va *xola* kabi soʻzlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha boʻyicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, korrelativ soʻzlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning maʼnolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi.


Feʼlning boʻlishli va boʻlishsiz shakllari (*bordi* va *bormadi*, *boray* va *bormay*, *koʻrgan* va *koʻrmagan* kabi formolari) ayrim adabiyotlarda «antonimlarning alohida bir tipi...» deb qaraladi, biroq tilshunos Sh.Rahmatullayev bu fikrga qoʻshilmaydi. Uningcha, «Oddiy inkorning oʻzi hali antonim emas. Masalan, *ayt* va *aytma*, *aytar* va *aytmas* kabilar biri ikkinchisining inkori. Ammo ularni oʻzaro antonimlar deb boʻlmaydi. Asli bular ikki leksema emas, balki ayni bir leksemaning ikki (boʻlishli va boʻlishsiz) shakllaridir. Antonimiya esa ikki leksema orasidagi maʼno munosabatidir...» . Antonimiyani ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor. Mazkur darslikda ham antonimiyaga shu pozitsiyadan yondashildi.

Antonimiya mezonini belgilashda Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan **mantiqiy markaz** prinsipiga tayanish yaxshi natija beradi. Bu printsipga koʻra ikkita maʼno oʻrtasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan oʻrin olgan tushunchalar oʻzaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Maslan, *kuz* bilan *bahor* orasida *qish* bor, demak, *kuz* va *bahor* leksemalari oʻzaro antonimlar deb qaraladi, ammo *kuz* bilan *qish* – antonim leksemalar emas, chunki bu ikki leksema orasida oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) yoʻq; shuningdek, *qish* bilan *bahor* atnonim emas (oraliq tushuncha yoʻq), *qish* bilan *yoz* – antonimlar

(oraliq tushuncha – «bahor»); *kecha* bilan *bugun* – antonimlar emas (oraliq tushuncha yo’q), *kecha* va *ertaga* – antonimlar (oraliq tushuncha – «bugun»); *o’tmish* va *hozir* antonimlar emas (oraliq tushuncha yo’q), *o’tmish* va *kelajak*– antonimlar (oraliq tushuncha-«hozir») kabi. Bunday munosabatlarni quyidagi sxema (chizma) tarzida ifodalash mumkin (mantiqiy markaz o’rnida M harfi qo’llangan).




Ba’zan mantiqiy markazning ikki tomonida bir nechtdan antonimik juftliklar bo’ladi: **a’lo** (juda yaxshi)–**yaxshi-o’rta(M)- yomon-juda yomon** kabi. Buni sxemada shunday ifodalash mumkin:



Bunday hollarda o’z ma’nosiga ko’ra mantiqiy markazdan teng uzoqlikda joylashadigan so’zlar o’zaro antonimik juftlik hosil qiladi.

Fasl nomlari orasidagi antonimiyani quyidagi sxema tarzida ifodalash mumkin.



Antonimik munosabatda bo'lgan ayrim leksemalar orasida mantiqiy markaz bo'ladi-yu, ammo uni nomlovchi so'zning o'zi bo'lmaydi. Masalan, *kulgi* va *yig'i* leksemalari orasidagi mantiqiy markazni bildiruvchi maxsus so'z tilda yo'q, ammo oraliq hodisaning o'zi bor: u kishining kulmasdan, yig'lamasdan turgan normal holatidir, demak, ana shu holat (ekstralingvistik omil) mantiqiy markaz sifatida tasavvur qilinadi. (113,9-12).

Antonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi. Leksik antonimlar muhim uslubiy vositalardir. Ular matnda qarshilantirish (antiteza) vositasi rolini bajaradi, shu orqali hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, ayrim obraz va personajlarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarning badiiy talqinini ta'minlaydi.

Tinglar edim betinim

Uzun tunlar yotib jim.
Seza olardim kuchin,
Ko'pi **yolg'on**, ko'pi **chin**.

(H.O.)

Oq bilan **qorani**, **kecha-kunduzni**,

Do'st bilan **dushmanni** qila oldi farq (G'.G'ulom)

Abadiy **firoqni**, hayhot do'stlarim,

Abadiy **visol** deb bildi kelinchak (A.Oripov)

Do'st bilan **obod** uying,

Gar bo'lsa u **vayrona** ham.

Do'st qadam qo'ymas esa,

Vayronadir koshona ham (E.Vohidov)

Ilmli odamga ulug'lik hamdam,
Ilmsiz qozini eshak deb aytma,
Chunki bu eshakka tuhmatdir beshak.

(H.DeH.).

Jahonning **shodligi** yig'ilsa butun,
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.
To'lur g'**am-g'ussaga** dilning kosasi,
Qadrdon do'stlardan judo bo'lgan kun.

(Rud.)

Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi - hayotiy tajriba umumlashmalarini maqol va matallar tiliga xos uslubda ta'sirchan ifodalash imkonini yaratadi:

Yozgi mehnat - **qishki** rohat.

Mehnatdan **do'st** ortar, g'iybatdan – **dushman**.

Do'st achitib gapirar, **dushman** – kuldirib.

Yaxshi do'st – jon ozig'i,
Yomon do'st – bosh qozig'i.

Donoga ish – shonu shuhrat,
Nodonga ish – g’amu kulfat.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1. Antonimiya nima? Antonimik juftlik-chi?
2. Antonimiya hodisasining so’z turkumlariga munosabati qanday?
3. Kontekstual antonimiya haqida ma’lumot bering.
4. Qanday holatlarda antonimiya hodisasi yuz bermaydi?
5. Antonimiya va enantiosemiya hodisalarini tushuntiring.
6. Antonimiya va polisemiya o’rtasidagi bog’lanishni tushuntiring.
7. Antonimiya hodisasi bilan bog’liq qanday munozarali masalalarni bilasiz?
8. Antonimiya hodisasining mezoni sifatida qaraladigan *mantiqiy markaz* haqida ma’lumot bering.
9. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi?

Tayanch tushunchalar

Antonimiya – leksemalarning bir-biriga zid ma’no anglatishi asosida guruhlanishi.

Antonimik juftlik - o’zaro qarama-qarshi ma’noli ikki so’z.

Kontekstual antonimiya – tilda antonimik munosabatda bo’lmagan so’zlarning ma’lum kontekst doirasida antonimik munosabatga kiritilishi.

Enantiosemiya – bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit taqozosi bilan zidlanishning ifodalanishi.

Mantiqiy markaz – ikki ma’no o’rtasidagi oraliq tushuncha.